e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)

Article / Original paper *https://doi.org/10.67227/rtfr2481*

SHAYBONIYXON MADRASASINING BUNYOD ETILISH TARIXI

Xudoyberdiyev Baxtiyor Bobomurod o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, O'quv-uslubiy boshqarma xodimi.

e-mail: Xudoyberdiyevb59@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0004-4821-8217

Annotatsiya.

Ushbu maqolada XVI asrda Muhammad Shayboniyxon tomonidan bunyod etilgan Shayboniyxon madrasasining qurilish sanasi va nomlanishi bilan bog'liq masalalar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, Muhammad Shayboniyxonning diniy-ilmiy qarashlari, Naqshbandiya shayxlari ta'sirida olgan ta'limi hamda Movarounnahrga bo'lgan qiziqishi yoritiladi.

Kalit so'zlar: xon, vaqfnoma, hijriy, madrasa, vaqf, hujra, dahma, sulton, imom, noib, xonaqoh, masjid, chorsu.

ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА МЕДРЕСЕ ШЕЙБАНИ-ХАНА

Худойбердиев Бахтиёр Бобомурод угли

Шахрисабзский государственный педагогический институт, сотрудник Учебно-методического управления.

Аннотация.

В статье анализируются вопросы, связанные с датой строительства и наименованием медресе Шейбани-хана, возведённого в XVI веке Мухаммадом Шейбани-ханом. Наряду с этим освещаются религиозно-научные взгляды Мухаммада Шейбани-хана, полученное им образование под влиянием шейхов Накшбандийского тариката, а также его интерес к Мавераннахру.

Ключевые слова: хан, вакфнаме, хиджра, медресе, вакф, худжра, дахма, султан, имам, наиб, ханака, мечеть, чорсу.

THE HISTORY OF THE CONSTRUCTION OF THE SHAYBANI KHAN MADRASAH

Xudoyberdiyev Baxtiyor Bobomurod o'g'li

Shakhrisabz State Pedagogical Institute, Staff Member of the Educational and Methodological Department.

Abstract.

This article analyzes issues related to the date of construction and the naming of the Shaybani Khan Madrasah, built by Muhammad Shaybani Khan in the sixteenth century. It also examines Muhammad Shaybani Khan's religious and scholarly views, the education he received under the influence of Naqshbandi sheikhs, and his interest in Transoxiana.

Keywords: khan, waqfnama, Hijri, madrasah, waqf, hujra, dakhma, sultan, imam, naib, khanqah, mosque, chorsu.

Kirish. So'nggi Temuriylarning o'zaro urushlaridan xalq ham charchagan va qo'shimcha tarzda ularga shimol tarafdan unumdor vohalarga talabgorlar ham topiladi. Bu shimolda kuchayib borayotgan Muhammad Shayboniy boshchiligidagi Dashti Qipchoq o'zbeklari edi. Natijada Muhammad Shayboniyxon tomonidan Movarounnahr va Xurosonda yirik va kuchli davlat tashkil topdi. Muhammad Shayboniyxon tomonidan bunyodkorlik ishlari ham amalga oshirilgan bo'lib, ularning ichida Shayboniyxon madrasasi ajralib turadi. Uning qurilish sanasi va nomi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Mavzu tarixshunoslik va manbashunoslik tahlillariga asoslanadi. Shunga ko'ra, mavjud manbalarni ikki guruhga turkumlashtirish imkoniyati paydo bo'ldi. Ulardan birinchi guruhga mahalliy tarixchilarning asarlari, ikkinchi guruhga chet el tadqiqotlarini kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Birinchi guruhdagi mahalliy tarixchilarning asarlari R. G. Muqminovaning "К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. По материалам «ВАКФНАМЕ»", Xondamirning «Habib as-siyar», Abu Tohir Xo'janing "Самария" va Komilxon Kattayevning "Самарқанд мадрасалари ва илму фан ривожи" kabi asarlarini o'z ichiga oladi. Ikkinchi guruh V. L. Vyatkin, Abdulkadir Machit, Shoxsanam Xamidzhanova va E. Allworth kabi tadqiqotchilarning asarlaridan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shayboniyxon Buxoroda bo'lgan vaqtida zamonasining eng yaxshi hofizlari va din olimlari sifatida e'tirof etilgan ikki Naqshbandiy shayx — Shayx Jamoliddin Aziziy va Shayx Mansurdan dars olgan. Hatto Jamoliddin Aziziy dastlab uning tasavvufiy rahbarligini ham amalga oshirgan. Shayboniyxon Buxoroda bo'lgan ushbu davrda Bahouddin Naqshbandning qabrini ham ziyorat qilgan [8]. Allworth Shayboniyxonning dinga bo'lgan qiziqishining asosida yuqorida nomlarini zikr qilganimiz Naqshbandiy xojalar nazorati ostida olgan ushbu darslarning ta'siri nihoyatda katta

ISSN 3060-5059 (Online)

bo‘lganini ta’kidlaydi [9]. Shu ma’lumotlar asosida Muhammad Shayboniyxonning diniy bilimlari va Movarounnahrga qiziqishini tahlil etishimiz mumkin. Bu holat, albatta, bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishga undovchi omildir.

Shayboniyxon bunyod ettirgan eng mashhur inshoot — Samarqandda qurdirgan katta madrasasidir [7]. Shayboniyxon madrasasi Oliyaxoniy madrasasi, ya’ni «Oliy xon madrasasi», shuningdek, qisqacha Oliy madrasasi yoki Xoniya madrasasi deb ham ataladi. Joylashuviga ko‘ra, u Janubiya, ya’ni Janubiy madrasa deb belgilanadi. Bu nom uni hujjatda (Muhammad Shayboniyxonning kelini Mehr Sultonxonim nomidan yozilgan vaqf hujjatining qo‘lyozma kitob shaklidagi nusxasi, ya’ni “Vaqfnoma”) Shayboniyxon madrasasining shimolida joylashgani uchun Shimoliya — Shimoliy madrasa deb atalgan ikkinchi madrasadan farqlash uchun ishlatilgan [1].

Shimoliy madrasa Mehr Sultonxonim (Shayboniyxonning kelini) tomonidan qurilgan bo‘lib, Shayboniyxonning madrasasi yonida joylashgan. Madrasalar orqama-ketin bitkazilgan hamda har ikkalasining arki, peshtoqlari umumiy bo‘lgani uchun ham ba’zan “Qo‘sh madrasa” deb atalgan. Keyinchalik Shayboniyxon madrasasini “Madrasai Janubiya”, malikanikini esa “Madrasai Shimoliya” kabi nomlar bilan atashgan [6].

Oliyaxoniy madrasasi uni bunyod ettirgan shaxs nomi bilan Muhammad Shayboniyxon yoki Shoh Muhammadxon madrasasi deb ham atalgan, ba’zan esa qisqacha «Madrasai Xon» nomi bilan yuritilgan. Madrasa asoschisining nomi bilan bog‘liq bo‘lgan bu nomlar keyinchalik ikkala binoga ham birgalikda nisbatan qo‘llanila boshlagan.

Muhammad Shayboniyxon madrasasi XX asrgacha saqlanib qolgan tarixiy yodgorlik hisoblanadi. O‘z faoliyati davomida u bir necha bor qayta qurilgan, uning rejasi esa sezilarli darajada o‘zgartirilgan. XVII asrda madrasa binolari Muhammad Nodirbiy Otaliq rahbarligida ta’mirlangan. O‘sha davrga kelib mamlakatdagi notinchliklar sababli madrasa binolari uchun tashkil etilgan vaqf xo‘jaligi ham izdan chiqqan edi.

XVIII asrga kelib Shayboniyxon madrasasi juda yomon ahvolga tushib qolgan. Shu sababli Shoh Murod (1785–1800-yillar) uni qayta qurish haqida buyruq berishga majbur bo‘lgan. Shundan so‘ng madrasa avvalgi hashamatli ko‘rinishini yo‘qotgan. Keyinchalik, 1874-yilda ko‘chalarni to‘g‘rilash va qayta rejalashtirish ishlari munosabati bilan madrasaning bir qismi buzib tashlangan. XX asr boshlariga kelib esa bu yodgorlik kichikroq madrasa ko‘rinishida qolgan. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, u eski madrasaning hududidagi janubi-sharqiy qismni egallagan bo‘lishi mumkin [2]. XX asr o‘rtalarida Sovet Ittifoqi davrida butkul vayron qilingan.

«Vaqfnoma»da har ikkala madrasaning qurilish tarixi haqida ma’lumotlar berilgan. Ulardan birinchisi, yuqorida aytib o‘tilganidek, o‘zbek xoni Muhammad Shayboniyxon tomonidan bunyod etilgan. «Vaqfnoma»ga ko‘ra, u Oliy madrasasini Chahorsuning yaqinida, Bobo Xudoydod mahallasida qurdirdi. Hujjatda bu bino «umid maydonidek keng bir makonda, baland osmon cho‘qqisiga o‘xshash bino» sifatida tasvirlanadi.

Bir necha yil o‘tib Shayboniyxon madrasasiga tashrif buyurgan Zayniddin Vosifiy esa o‘z xotiralarida madrasaning ayvoni, zali va hovlisi keng, baland va nihoyatda hashamatli bo‘lganini yozgan. Shayboniyxon madrasasi shariat ilmlarini o‘rganish uchun mo‘ljallangan xonalardan hamda ko‘plab hujralardan iborat bo‘lgan. Hujralar madrasa talabalari va xizmatchilarining o‘qishi hamda yashashi uchun xizmat qilgan [5].

XVI asr boshlarida o‘zbek va tojik tillarida yozilgan boshqa tarixiy asarlarda ham madrasa haqida qo‘shimcha ma’lumotlar mavjud. Bu asarlardan olingan ma’lumotlar yana bir jihatdan qiziqarlidir: ular Shayboniylarning boyish manbalarini va ular tomonidan monumental binolar, xususan, Shayboniyxon madrasasining qurilishi qanday mablag‘lar hisobidan amalga oshirilganini ko‘rsatib beradi.

Temuriylarning hozirgi O‘zbekiston hududidagi asosiy mulklarini zabt etgach, Muhammad Shayboniyxon qo‘shinlari hozirgi Tojikiston hududlariga tomon yo‘l oldilar. Shayboniyxon qo‘shinlari bu yerlarda Hisori Shodmon, Xuttalon, Badaxshon, Qunduz va Bag‘lonni zabt etgan, bu g‘alabalar katta foyda keltirgan. O‘ljalar hatto Amudaryodan 2 kun davomida olib o‘tilgani haqida ma’lumotlar beriladi [3]. Albatta, bu urushdagi g‘animatning hammasi bunyodkorlik uchun sarflanmagan bo‘lsa-da, Shayboniyxon madrasasi qurilishi shu moddiy boyliklar hisobiga amalga oshirilgan, deb tahlil qilinadi.

Shunday qilib, Shayboniyxon madrasasi haqidagi dastlabki sanalangan ma’lumotni 1504-yilga (yoki 1504/1505-yilga) kiritish mumkin. Samarqandning Shayboniyxon tomonidan uzil-kesil egallanishi 1501-yilga to‘g‘ri kelishini hisobga olsak, Shayboniyxon madrasasi qurilishi 1501-yildan keyin boshlangan, deb taxmin qilish mumkin. 1504-yilga kelib esa madrasa hovlisi mavjud bo‘lgan bino ko‘rinishida bo‘lgan va Mahmud Sulton aynan shu hovliga dafn etilgan [1].

Keyinchalik, 1508–1509-yillarga oid voqealarni tasvirlar ekan, Ibn Ro‘zbekhon Shayboniyxon madrasasini (uni Oliy, Xoniya yoki Madrasai Xon deb atagan holda) zarhal tomga, hujralarga, ayvonga va katta hovliga ega bo‘lgan madrasa sifatida tavsiflaydi. U ushbu madrasada ko‘p sonli odamlar ishtirokida o‘tkazilgan yig‘ilishlar va ilmiy munozaralarni ham tasvirlaydi. Bu tadbirlar Shayboniyxon va Ibn Ro‘zbekhonning o‘zlari ishtirokida bo‘lib o‘tgan. Shundan kelib chiqib, Muhammad Shayboniyxon hayotlik davridayoq madrasa binosining asosiy qurilish ishlari, ehtimol, deyarli yakunlangan, degan xulosaga kelish mumkin.

1510-yil 29-noyabrda Shayboniyxon Shoh Ismoil bilan bo‘lgan jangda halok bo‘ldi. Uning boshi kesilgan va jasadi tahqirlangan holda Samarqandga olib kelinib, o‘sha madrasaning hovlisidagi supaga dafn etildi. Abu Tohirxo‘janing so‘zlariga ko‘ra, bu madrasa «Muhammad Temur Sulton o‘z otasining jasadini shu yerga dafn qilganidan boshlab» Shayboniyxon nomi bilan mashhur bo‘lgan [4]. Undan tashqari, madrasadagi dahmada o‘ndan ziyod Shayboniy sulton va malikalar dafn etilgandir [6].

«Vaqfnoma»da aytilishicha, «bu yuksak bino hali qurib bitkazilmasidan avval, hamma narsadan boxabar hukmdorning buyrug‘i bilan, bu ulug‘ maskanning asoschisi bo‘lgan hukmdor Muhammad Shayboniyxonning ruhi haqiqat maskanidan joy olgan». Ya’ni, Muhammad Shayboniyxon vafot etganidan so‘ng madrasa qurilishi uning uch o‘g‘lining kattasi Muhammad Temur Sulton tomonidan davom ettirilgan [1].

ISSN 3060-5059 (Online)

1514-yilda Zahiriddin Boburning Hisordagi qolgan qo‘shinlariga qarshi yurish vaqtida Muhammad Temur Sulton kasallanib, vafot etgan. «Vaqfnoma»da aniqlik kiritilishicha, u hijriy 920-yil 20-muharramda (1514-yil 17-mart) Xuttalonning Kulok dashtida (hozirgi Ko‘lob viloyatida) vafot etgan [4]. Uning jasadi Samarqandga olib kelinib, «Shoh Muhammadxon madrasasi», ya’ni Shayboniyxon madrasasiga dafn etilgan.

«Vaqfnoma» ma’lumotlariga ko‘ra, Oliyaxoniy madrasasining qurilishi Muhammad Temur Sulton hayotligida ham tugallanmagan. U boshqa sultonlar bilan, ya’ni o‘zi kabi xonlik taxtiga da’vogarlik qilgan shahzodalar bilan ichki kurashlar bilan band bo‘lgan. Shu sababli u mazkur madrasani keng ko‘lamda qurib bitkazish imkoniga ega bo‘lmagan. Vaqf hujjatiga ko‘ra, bino qurilishi Muhammad Temur Sulton vafotidan keyin uning xotini Mehr Sultonxonim tomonidan yakunlangan [1].

«Vaqfnoma»da madrasa binosining qurilishi haqida keltirilgan ma’lumotlardan bir necha masala hanuz noaniq bo‘lib qolmoqda: Muhammad Shayboniyxon vafot etgan paytda Oliyaxoniy madrasasining qurilishi tugallanganmidi; bu ishda uning o‘g‘li Muhammad Temur Sulton tomonidan qanday ishlar amalga oshirilgan; hamda Mehr Sultonxonim ushbu madrasa qurilishining qaysi qismini bajargan? Bu savollarni aniqlashda XVI asrning dastlabki o‘n yilliklarida ushbu madrasaga tashrif buyurgan zamondoshlarning ma’lumotlari yordam beradi.

Muhammad Solih Mahmud Sulton dafn etilgan paytdagi (1504-yil) madrasa binosi haqida yozar ekan, Shayboniyxon Samarqandda o‘zi va o‘z davlatining xotirasini abadiylashtirish maqsadida madrasa qurdirdi, deb ta’kidlaydi.

Bu masalaga yuqorida keltirilgan Ibn Ro‘zbekhonning Xoniya madrasasi haqidagi ma’lumotlari yanada ko‘proq aniqlik kiritadi. U madrasaning zarhal tomi, unda o‘tkazilgan ilmiy munozaralar haqida yozadi. Shuningdek, u madrasaning mudarrisi bir vaqtning o‘zida Samarqand shahrining qozisi va shayxulislomi lavozimlarini ham egallaganini qayd etadi. Bundan ko‘rinadiki, Oliyaxoniy madrasasining hujralari va hovlisi bilan birga asosiy binosi 1509-yilga kelib allaqachon qurib bitkazilgan.

Zayniddin Vosifiyning Samarqandga hijriy 918-yilda (1512/13-yil) tashrif buyurgan paytdagi ma’lumoti ham ma’lum qiziqish uyg‘otadi. Uning yozishicha, Kuchkunchixon hukmronligi davrida (1510–1530-yillar) Samarqanddagi madrasalar, xonaqohlar va masjidlarda ta’mirlash hamda obodonlashtirish ishlari olib borilgan. Vosifiy, shuningdek, «o‘ldirilgan xon madrasasi — oliyjanob Muhammad Shayboniyxonning zamon imomi va noibi» bo‘lgan madrasa haqida yozadi. Bu bino ayvon, zal va hovlidan iborat bo‘lib, «Samarqand Chorsusining boshida qurilgan» edi. Unda to‘rt nafar mudarris tayinlangan [5].

Zayniddin Vosifiyning ushbu ma’lumoti «Vaqfnoma»dagi ma’lumotlar bilan tasdiqlanadi. Unga ko‘ra, Muhammad Shayboniyxonning ikkala madrasasiga jami to‘rt nafar mudarris tayinlanishi kerak bo‘lgan.



Shayboniyxon madrasasi. Reja va kesimlar (1871-yildagi). **1.**Madrasa rejasi. **2.**A–B chizig‘i bo‘yicha fasad. **3.**chizig‘i bo‘yicha kesim. *Manba:* R.G. Muqminovaning “К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. По материалам «Вакф-наме».

Mehir Sultonxonim Shayboniyxon madrasasida faoliyat yuritadigan ulamolar shtatini tasdiqlagan. U har bir

madrasaga bittadan mudarris, bundan tashqari, «barchadan ko'proq bilimga ega bo'lgan» yana bir mudarris hamda madrasadan tashqaridagi alohida xonada dars beradigan yana bir mudarrisni tayinlagan.

V. L. Vyatkin Zayniddin Vosifiyning Shayboniyxon madrasasiga mudarrislar tayinlangani haqidagi ma'lumotiga e'tiroz bildirar ekan, Vosifiy madrasani allaqachon qurib bitkazilgan inshoot sifatida tasvirlayotganini, unda o'qituvchilarni tayinlash mumkin bo'lganini yozgan. «Holbuki, — deydi u, — vaqf hujjatiga ko'ra, o'sha paytda hatto birinchi madrasa ham qurib bitkazilmagan edi».

Biroq yuqorida keltirilgan, tasvirlanayotgan voqealar zamondoshlari bo'lgan mualliflarning asarlaridagi ma'lumotlar V. L. Vyatkin bildirgan shubhalarni bartaraf etishga va Oliyaxoniy madrasasi 1512-1513 yillarga kelib allaqachon qurilgan hamda faoliyat ko'rsatganini aniqlashga imkon beradi.

Bu fikr «Vaqfnoma»dagi mazkur ma'lumot bilan ham tasdiqlanadi. Unda Oliyaxoniy madrasasi «bu saodatli xon hukmronligining yodgorliklari va uning qudratining belgilaridan biri» qatoriga kiritilgan.

O'sha davrga kelib o'zining ko'plab istilolari bilan shuhrat qozongan Muhammad Shayboniyxonning butunlay qurilishi tugallanmagan binosini «hukmronlik yodgorligi va qudrat belgisi» deb atashlari ehtimoldan yiroq [1].

Shunday holat va «Vaqfnoma»dagi ma'lumotlarni hisobga olgan holda, Oliyaxoniy madrasasi qurilishi faqat Mehr Sultonxonim davrida yakunlangan, degan fikrni binoning ayrim tafsilotlari, xususan, fasadning tashqi qoplamasi va shu kabi ishlarning nihoyasiga yetkazilishi bilan bog'lash mumkin.

«Vaqfnoma»ga ko'ra, Oliyaxoniy madrasasi binosi Mehr Sultonxonimning buyrug'i bilan to'liq qurib bitkazilgan. Shundan so'ng uning yonida yana bir madrasa bunyod etilgan. «Vaqfnoma»da u Shimoliy madrasa deb ataladi.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Shayboniyxon hukmronligini mahalliy xalq ham ijobiy baholaganligi ma'lumdir. Chunki so'nggi Temuriylar davrida olib borilgan kurashlardan xalq charchagan edi. Zodagonlar ham ma'lum darajada Muhammad Shayboniyxonga xayrixoh edilar. Shayboniyxonga ba'zi din ulamolarining ham ma'lum darajada qo'llovi mavjud bo'lib, bu holat unga bunyodkorlik faoliyatini olib borishi uchun bir omil bo'ldi. Chunki mahalliy aholi uchun yangi hokimiyat o'zining jozibadorligi bilan birga kuchini ham ko'rsatishi zarur edi. Shayboniyxon madrasasi qurilishi sanasi bo'yicha har xil ma'lumotlar mavjud, chunki yuqorida ko'rib o'tganimizdek, bir joyda yonma-yon ikki madrasa qurilgan. Ba'zi bir taxminlarga ko'ra, aynan shu bir-biriga yondosh ikki madrasa, ya'ni Muhammad Shayboniyxon va kelini Mehr Sultonxonim qurdirgan madrasalar mualliflar tomonidan adashtirilgan bo'lishi mumkin. Hatto ikki madrasa bir-biriga yonma-yon joylashgani uchun "Qo'sh madrasa" deb atalgani ham bejiz emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мукминова Р. Г. *К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в.: по материалам «Вакф-наме».* – Ташкент: Издательство «Наука» Узбекской ССР, 1966. – 352 с. – С. 9, 15–18. (Google Books)
URL: https://books.google.com/books?id=SeLSAAAAMAAJ
2. Вяткин В. Л. Самаркандская археологическая хроника // *Известия Средне-Азиатского комитета по делам музеев и охраны памятников старины, искусства и природы.* – Ташкент, 1928. – Вып. III. – С. 276–279. (NYU Faculty Digital Archive)
URL: https://archive.nyu.edu/bitstream/2451/42813/1/isawdca_000346.pdf
3. Xondamir. *Habib as-siyar fi akhbar afrad al-bashar.* – III jild. – Maṭbaʿ-i Aḥmadī, 1856. – B. 303. (Google Books)
URL: https://books.google.com/books?id=JyODzwEACAAJ
4. Абу Тахир Ходжа. *Самария: описание древностей и мусульманских святынь Самарканда* / пер. В. Л. Вяткина // *Справочная книжка Самаркандской области.* – Самарканд, 1899. – Вып. VI. – С. 153–259. – С. 224. (ДревЛит)
URL: https://drevlit.ru/docs/central_asia/XV/1440-1460/Chodja_Achrar/lit.php
5. Васифи Зайн ад-Дин. *Бадаи ал-вакаи* / критический текст, введение и указатели А. Н. Болдырева. – Т. I. – Москва: Издательство восточной литературы, 1961. – С. 49. (Русская Библиотека)
URL: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_005643292/
6. Kattayev K. *Samarqand madrasalari va ilmu fan rivoji: risola.* – Toshkent: Qamar-media, 2020. – 164 b. – B. 25. – ISBN 978-9943-5254-7-4. (Scribd)
URL: https://www.scribd.com/document/975957904/Самарқанд-Мадрасалар-Т-хи
7. Khamidzhanova Sh. *Şeybânî Hanlığı'nda Hukuk Sistemi: Şer'î Hukuk ve Örfî Hukuk (1500–1599): doktora tezi.* – İstanbul: Marmara Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Temel İslam Bilimleri Anabilim Dalı, İslam Hukuku Bilim Dalı, 2024. – XI, 154 s. – S. 36. (Marmara Open Access)
URL: https://openaccess.marmara.edu.tr/entities/publication/35d9e3c3-9ff4-424b-8e75-be7cd9c06735
8. Macit A. Şeybânî Özbek Hanları ve Nakşibendîlik // *Motif Akademi Halkbilimi Dergisi.* – 2014. – Cilt 7, Sayı 13. – S. 5–22. – S. 9. (DergiPark)
URL: https://dergipark.org.tr/tr/pub/mahder/article/301852
9. Allworth E. *The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History.* – Stanford, California: Hoover Institution Press, 1990. – 410 p. – P. 50. (Google Books)
URL: https://www.hoover.org/research/modern-uzbeks-fourteenth-century-present-cultural-history